

Inomqulova Nargiza Shodiyor qizi

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

O'zbek tili va adabiyot fakulteti sirtqi 3- kurs talabasi

nargizainomqulova583@gmail.com

Tel: +998908159598

+998903314445

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishning ilmiy asoslari, prinsiplari, qonuniyatlari va tamoyillari tahlil qilinadi. Ta'lim prinsiplari, o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular o'qituvchining faoliyatini boshqarish va o'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashda qo'llaniladi. Ta'limning ilmiy asoslari ikki shaklda – tasvir shaklida (ilmiylik prinsipi kabi) va qoida shaklida (oddiydan murakkabga qarab borish kabi) izohlanadi. Ushbu prinsiplardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari kengaygan sari, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, qonuniyatlar, tamoyillar, ta'lim prinsiplari, tasvir, qoida, ilmiy izlanishlar, tarixiy jarayonlar.

Abstract. This article analyzes the scientific foundations, principles, laws and principles of effective organization and management of the educational process. Educational principles are of great importance in the effective organization of the learning process of students, they are used to manage the teacher's activities and ensure the success of students in their studies. The scientific foundations of education are explained in two forms - in the form of an image (such as a scientific principle) and in the form of a rule (such as moving from simple to complex). As the possibilities of using these principles in practice expand, the effectiveness of the educational process increases.

Keywords: educational process, laws, principles, educational principles, image, rule, scientific research, historical processes.

Аннотация. В данной статье анализируются научные основы, принципы, законы и принципы эффективной организации и управления образовательным процессом. Педагогические принципы важны для эффективной организации процесса обучения учащихся, они используются для направления деятельности учителя и обеспечения успеха учащихся в обучении. Научные основы образования излагаются в двух формах - в форме образа (например, научного принципа) и в форме правила (например, перехода от простого к сложному). По мере расширения возможностей использования этих принципов на практике повышается эффективность образовательного процесса.

Ключевые слова: образовательный процесс, законы, принципы, принципы воспитания, образ, правило, научные исследования, исторические процессы.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish o'quvchilarning bilim olish darajasini oshirish va ularni jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Ta'limning samarali bo'lishi uchun uning asosiy prinsiplari, qonuniyatlari va tamoyillariga qat'iy rioya qilish zarur. Ta'lim prinsiplari o'qituvchining faoliyatini boshqarishda, o'quvchilarning bilim olish jarayonini esa samarali tarzda tashkil etishda yordam beradigan asosiy qoida va talablarni belgilaydi.

Ta'lim prinsiplari ikki shaklda izohlanadi: birinchisi, tasvir shaklida, ya'ni o'quv jarayonining ilmiy asoslari va ular o'rtasidagi aloqalar tushuntiriladi. Ikkinchisi, qoida shaklida bo'lib, unda ta'lim jarayonining normallashtirilgan, amaliyotga tatbiq etiladigan qoidalari o'rganiladi. Bu prinsiplardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari kengaygan sari ta'lim jarayoni yanada samarali bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi faoliyatini boshqarishda, ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirishda ta'lim prinsiplari o'z o'rnini topadi.

Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari esa ta'limning samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qonuniy bog'lanishlar va umumiy qoidalardan iboratdir. I.P.Podlasiy ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini aniqlab, ularning jamiyat rivojlanishiga, pedagogika fanining rivojlanish darajasi, o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari kabi omillarga bog'liqligini ko'rsatgan. Ta'limning samarali tashkil etilishi uchun didaktik, psixologik, kibernetik va boshqa turdagi qonuniyatlarga asoslanish zarur.

Ta'lim prinsiplari va qonuniyatlarining shakllanishi tarixiy jarayonlar va ilmiy izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Sharq mutafakkirlari, masalan, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy kabi allomalar ta'limning asosiy usullari, metodlari va tamoyillarini ilgari surganlar. XVII asrda esa pedagogika amaliy tabiatshunoslik sifatida rivojlana boshladi. Y.A. Komenskiy va Djon Lokk kabi olimlar pedagogikani biologiya va psixologiya qonuniyatlariga asoslanib qayta shakllantirdilar.

Shu tarzda, ta'limni samarali tashkil etish va boshqarishning ilmiy asoslari, prinsiplari va qonuniyatlari jamiyatning o'zgarishlariga mos ravishda doimiy ravishda yangilanib bormoqda. Bu jarayonda didaktik qonuniyatlari, psixologik omillar va ijtimoiy ehtiyojlar muhim rol o'ynaydi. Ta'lim tizimining rivojlanishi va modernizatsiyasi ta'lim prinsiplari va qonuniyatlarini chuqur anglashni taqozo etadi, bu esa ta'lim jarayonini samarali boshqarish va o'quvchilarning sifatli ta'lim olishiga yordam beradi.

Ta'limni tashkil etish va boshqarishda rioya qilinadigan qoidalar sifatida amal qiladi. Ta'lim prinsiplari haqida tasavvurlar ikki xil yo'l bilan izohlanadi:

1) tasvir shaklida. Masalan, ilmiylik prinsipi fan va o'quv predmeti o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Bu yerda ilmiylik prinsipi tasvir orqali bayon qilingan;

2) qoida shaklida. Masalan, ta'limda oddiydan murakkabga qarab boriladi. Bu jumlada tushunarliklik prinsipi qoidaga solingan, ya'ni normallashtirilgan.

Ta'lim prinsiplari qoida shaklini ollevergan sari, ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari ham kengayaveradi. Mutaxassislar ta'lim prinsiplari xususiyatlarini, asosan, o'qituvchi faoliyatiga nisbatan izohlashadi. Shu sababli ko'pchilik didaktik qo'llanmalarda "o'qitish prinsiplari" iborasi ishlatilgan. Ta'lim prinsiplari talim jarayonining ikkala sub'eaktiga ham o'qituvchi, ham o'quvchiga daxldor. Shunga ko'ra

biz ularni ta'lim prinsiplari deb nomladik. Ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, qoidalar ta'lim prinsipi deb aytiladi.

Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. O'quv jarayonida amal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiy va xususiy tarziga ikki guruhga ajratiladi. Amal qilinishiga ko'ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiy, amal qilinishiga ko'ra faqat alohida tarkibiy qismlariga taalluqli bo'lgan qonuniyatlar esa xususiy (aniq) deb ataladi. I.P.Podlasiy ta'lim jarayonining quyidagi umumiy qonuniyatlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Ta'lim maqsadi quyidagilarga bog'liq: jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasi.

2. Ta'lim mazmuni quyidagilarga bog'liq: ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati, o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari, ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o'quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlari.

3. Ta'lim sifati (samaradorligi) quyidagilarga bog'liq: avvalgi bosqich mahsuldorligi va mazkur bosqichda erishilgan natijalar, o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi, o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish hamda o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqti.

4. Ta'lim metodlari samaradorligi quyidagilarga bog'liq: metodlarni qo'llashda bilimlari va ko'nikmalari, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta'minot hamda o'quv jarayonini tashkil etish.

5. Ta'limni boshqarish mahsuldorligi quyidagilarga bog'liq: ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va tuzatish, ta'sir ko'rsatishlarning asoslanganligi.

6. Ta'limni rag'batlantirish samaradorligi quyidagilarga bog'liq: ta'limning ichki rag'batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag'batlari.

Zamonaviy fanga aniq qonuniyatlar ko'plab soni ma'lumdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Didaktik qonuniyatlar.
2. Gnoseologik qonuniyatlar.
3. Psixologik qonuniyatlar.
4. Kibernetik qonuniyatlar.
5. Sotsiologik qonuniyatlar.
6. Tashkiliy qonuniyatlar.

Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang'ich qoidalaridir. Tamoyil (yunoncha «rinciium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillarining shakllanish tarixi. Ibtidoiy jamiyatda insoniyat o'sib kelayotgan avlodga mavjud bilimlarni uzatish asosida amaliy bilimlari asta-sekin shakllangan. O'sha davrdayoq ta'lim amaliy qoidalari ishlab

chiqilgan va avloddan-avlodga uzatib kelingan. Antik davrda asosan ajdodlar tajribasi an'analar tarzida umumlashtirilib, amaliy ta'lim masalalari hal etilgan. Platon va Aristotellar tavsiya hamda qoidalar to'plami ko'rinishida amaliyotiy ta'lim mohiyatini umumlashtirishga uringanlar.

Sharqdagi Uyg'onish davrida (IX-XI asrlar) arab, musulmon madaniyatining Yaqin va Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati bilan birlashishi asosida alohida sinkretik (yunoncha synkretismos – birlashish, yaxlitlik, qo'shilish) madaniyat birlashgan turi yuzaga kelgan. Allomalar Muhammad al-Xorazmiy (787-850 yillar), Abu Nasr orobiy (870-950 yillar), Al-Kindiy (800-870 yillar), Abu Rayhon Beruniy (973-1050 yillar), Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) va boshqalar uning asoschilari sifatida mashhur bo'ldilar. Bu madaniyatning asosiy markazlari Suriya, Eron, Markaziy Osiyo hududlarida joylashgan.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida ta'lim usullari, qoidalari, tamoyillari, metodlari va shakllari asosida ta'lim amaliyotining mohiyatini ifoda etadilar. Biroq ta'lim masalalari bilan ular maxsus va izchil shug'ullanmaganliklari bois maxsus didaktik nazariya yaratilmadi. Ta'limni ular fan sifatida emas, boshqa fanlarga o'rgatish sanhati, hunarmandchilik sifatida tushundilar. Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan qoida, usul va tamoyillarning aksariyati zamonaviy maktablarda ham qo'llanilmoqda. XVII asrda pedagogika amaliy tabiatshunoslik sifatida biologiya qonuniyatlariga bo'ysunishi ehtirol etilgan. Pedagogikani tubdan to'la qayta qurishni cheh olimi Ya.A.Komenskiy va ingliz pedagogi Djon Lokk amalga oshirdilar.

Ular pedagogik qonunlarining quyidagi uch jihatiga ko'ra guruhlaganlar:

1. Ijtimoiy-tarixiy.
2. Tabiiy-tarixiy.
3. Psixologik.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limni tashkil etish va boshqarishning prinsiplari va qonuniyatlari ta'lim jarayonining samarali va maqsadga muvofiq tashkil etilishi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bu prinsiplarga rioya qilish ta'limning sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim olish qobiliyatini yaxshilash, o'qituvchi faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi. Ta'lim tamoyillari, prinsiplari va qonuniyatlari o'quv jarayonining asosi bo'lib, uning samarali tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan barcha elementlarni qamrab oladi. O'qituvchilar bu tamoyillarga asoslanib, o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy va psixologik ehtiyojlarini hisobga olish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qilishlari mumkin. Ta'lim jarayonidagi bu asosiy qonuniyatlar va prinsiplarga rioya qilish, o'quvchilarga to'g'ri yo'l ko'rsatish va ularning bilim olish jarayonini muvaffaqiyatli boshqarish uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika darslik.T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Qodirova F.R, Toshpo'latova SH.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
3. D.R. Babaeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: "Barkamol avlod fayz" 2018 y. Darslik.
4. <http://azkurs.org/mavzu-davlat-talim-standartlarining-maqsad-va-vazifalari-talim.html?page=2>
5. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/ta-lim-tamoyillari-va-metodlari>

